

Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Mazkur uslubiy nizom Milliy hisoblar tizimi – 2008 (keyingi o'rinlarda – MHT-2008) xalqaro statistika andozalariga, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyalariga, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan yalpi ichki mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAIM)ni yakuniy iste'mol usulida hisoblash ishlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Yangilangan MHT – 2008 standarti BMT Statistika komissiyasi homiyligida ishlab chiqilgan hamda ilmiy-tadqiqot faoliyati xarajatlari, harbiy xarajatlar, bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (keyingi – BO'MVX), o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlari va boshqa bir qator muhim iqtisodiy operatsiyalarni yangicha talqin qilishni ko'zda tutadi.

Ushbu hujjatning maqsadi bir qator muhim iqtisodiy operatsiyalar talqinidagi o'zgarishlar va MHT – 2008 milliy hisobchilik bo'yicha to'rtinchi xalqaro standartini oldingi MHT – 1993 bilan taqqoslaganda yuzaga kelgan qo'shimchalar bilan bog'liq uslubiy masalalarni yangilashdan iborat.

Mavjud axborot bazasini yaratish, statistika hisobotlarini takomillashtirish, xalqaro tasniflagichlarni statistika amaliyotiga joriy etish, MHTning boshqa makroiqtisodiy statistika tizimlarini xalqaro tasniflagichlar, xususan "To'lov balansi va xalqaro investitsiya pozitsiyasi bo'yicha qo'llanma"sining oltinchi nashri (keyingi o'rinlarda – TBQ6) va "Davlat moliyasi statistikasi bo'yicha qo'llanma 2014- yil" (keyingi o'rinlarda – DMS-2014) bilan uyg'unligini ta'minlash kabi bir qator masalalarning hal qilinishi mazkur uslubiy nizomni yangilash imkonini yaratdi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

yakuniy iste'mol usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiyotdagi barcha rezident institutsional birliklarining yakuniy iste'molga, yalpi jamg'arilishga va sof eksportga qilgan xarajatlarini ifodalovchi ko'rsatkichdir;

institutsional birlik o'z nomidan aktivlarga egalik qiladigan, majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan, iqtisodiy faoliyat va boshqa birliklar bilan operatsiyalarni amalga oshiradigan xo'jalik yurituvchi subyektdir. Institutsional birlik iqtisodiy manfaatdorlik markazi uzoq muddat (kamida bir yil) mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida bo'lsa mamlakatning **rezidenti** hisoblanadi.

Butun iqtisodiyotni tashkil qiluvchi rezident institutsional birliklar bir-biridan farqlanuvchi beshta **institutsional sektorlarga** guruhlanadi:

- a) nomoliyaviy korporatsiyalar;
- b) moliyaviy korporatsiyalar;
- d) davlat boshqaruvi organlari;
- e) uy xo'jaliklari;
- f) uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar.

davlat boshqaruvi organlari sektori individual yoki kollektiv iste'mol uchun asosan nobozor xizmatlarni ko'rsatuvchi (tovarlarni ishlab chiqaruvchi), shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlovchi institutsional birliklardir. Ushbu birliklarning resurslari boshqa sektorlarga tegishli bo'lgan institutsional birliklar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ajratmalar, shuningdek, mulkdan olinadigan daromadlar hisobiga shakllanadi;

uy xo'jaliklari sektoriga asosiy funksiyasi ishchi kuchini taklif qilish va yakuniy iste'mol bo'lgan, shuningdek, sotish yoki o'z iste'moli uchun tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradigan barcha rezident uy xo'jaliklari kiradi.

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori (UXXKNT) uy xo'jaliklariga nobozor xizmatlarni ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi institutsional birliklar (jamoat birlashmalari, ijodiy va kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, xayriya jamg'armalari, alohida balansga ega bo'lgan sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohasida xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari) bo'lib, ularning asosiy resurslar manbai a'zolik badallari va tashkilot mablag'lari hisoblanadi;

yakuniy iste'mol – alohida uy xo'jaliklari yoki butun jamiyat tomonidan individual va kollektiv ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan tovarlar va xizmatlar qiymati;

iqtisodiy jihatdan ahamiyatsiz narxlar bu – tovarlar va xizmatlarning talab va taklifiga ta'sir qilmaydigan (yoki deyarli ta'sir qilmaydigan) narxlar;

natura shaklidagi ish haqi – ish uchun zarur bo'lmagan va xodimlar o'z ehtiyojlarini yoki uy xo'jaliklarining boshqa a'zolari ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlardan iborat natura shaklidagi mukofot;

natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar davlat boshqaruvi organlari va UXXKNT tomonidan uy xo'jaliklariga natura shaklida bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan narxlardagi transfertlar sifatida taqdim etiladigan individual iste'mol tovarlari va xizmatlarining qiymatini anglatadi;

asosiy kapital iste'moli – hisobot davrida ishlab chiqaruvchiga tegishli bo'lgan va foydalaniladigan asosiy fondlar zaxiralari joriy qiymatining jismoniy eskirishi, odatiy ma'naviy eskirishi yoki tasodifiy shikastlanish natijasida kamayishi;

to'lov balansi – ma'lum bir vaqt davomida rezidentlar hamda norezidentlar o'rtasidagi iqtisodiy operatsiyalarni jamlangan holda ifodalovchi tizimlashtirilgan makroiqtisodiy va statistika hisoboti.

2-bob. YAIMni yakuniy iste'mol usulida hisoblash tamoyillari

2. Yakuniy iste'mol usulida hisoblangan YAIM iqtisodiyotning barcha institutsional sektorlari tomonidan yakuniy iste'molga, yalpi jamg'arilishga va sof eksportga qilingan xarajatlar yig'indisidan iborat.

Yakuniy iste'mol usuli bo'yicha YAIMni hisoblash quyidagi formulaga asoslanadi:

$$GDP = C + I + CII + X - M,$$

bu yerda

C – yakuniy iste'mol xarajatlari;

I – asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi;

CII – moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishi;

X – tovarlar va xizmatlar eksporti;

M – tovarlar va xizmatlar importi.

Yakuniy iste'mol usuli bo'yicha YAIMni hisoblashning batafsil chizmasi 1-ilovada keltirilgan.

Yakuniy iste'mol xarajatlari (**FC**) quyidagilardan tashkil topadi:

a) uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari (**HHFC**);

b) davlat boshqaruvi organlarining xarajatlari (**GFC**);

c) uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar xarajatlari (**NPISH FC**).

$$FC = HHFC + GFC + NPISH FC$$

Ushbu guruhlash yakuniy iste'mol xarajatlarini kim tomonidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi.

Yalpi jamg'arilish asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi va moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini o'z ichiga oladi.

Tovarlar va xizmatlarning eksporti va importi ma'lum bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan eksport va import operatsiyalarini qamrab oladi.

3. Yakuniy iste'mol usuli bo'yicha YAIM ko'rsatkichlari respublika darajasida Statistika dasturida nazarda tutilgan muddatlarda yillik va choraklik davriylikda shakllantiriladi.

Yakuniy iste'mol usuli bo'yicha YAIMni yillik baholash batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yillik statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi va foydalanishdagi tasniflagichlarga muvofiq kengroq detallashtirilgan holda shakllantiriladi.

Yakuniy iste'mol usuli bo'yicha YAIMni choraklik baholash joriy davrda mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatni dastlabki baholash va tavsiflash maqsadida amalga oshiriladi, shu bilan birga ular yil ichidagi ko'rsatkichlar bo'lib, ularga batafsil ma'lumotlar asosida yillik baholash jarayonida aniqlik kiritiladi. Shuningdek, yakuniy iste'mol usulida YAIMni choraklik baholash yillikdan farqli ravishda yuqoriroq darajada umumlashtirilgan holda shakllantiriladi.

3-bob. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari

4. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlarini baholash Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 24- dekabrda 131-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018" (keyingi o'rinlarda – MIIT)ga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur tasniflagich xalqaro COICOP 2018 (Classification of Individual Consumption According to Purpose) tasniflagichiga moslashtirilgan.

5. MIIT 2-ilovada keltirilgan 15 ta asosiy toifani o'z ichiga qamrab oladi. Ulardan birinchi 13 tasi uy xo'jaliklarining individual iste'moli uchun umumiy xarajatlarini aks ettiradi. Oxirgi ikkita toifa UXXKNT va davlat boshqaruvi organlarining natura shaklidagi ijtimoiy transfertlari sifatida ko'rib chiqiladigan xarajatlar qismini aks ettiradi. Shu bilan birga, 15 ta toifaning barchasi uy xo'jaliklarining haqiqiy iste'molini anglatadi.

6. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib olishga qilingan xarajatlar;
- o'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqarilgan va mehnat haqi sifatida olingan tovarlar va xizmatlar qiymati.

7. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari quyidagilarni o'z ichiga olmaydi:

a) uy-joylar, chorva mollari va qimmatbaho buyumlarni sotib olish (ular yalpi jamg'arilish sifatida qaraladi);

b) ishlab chiqarish maqsadlarida sotib olingan tovarlar va xizmatlar (uy xo'jaliklarining oraliq iste'moliga kiradi), shu jumladan: qurilish materiallari, asbob-uskunalar, anjomlar, yem-xashak va ko'chatlar, uydagi chorva mollariga ko'rsatilgan veterinar xizmatlar uchun haq to'lash, mashinalar va xo'jalik binolari ijarasi uchun to'lovlar va boshqalar;

d) korxonalarining xizmat safari xarajatlari uchun mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan transport va mehmonxona xizmatlari xarajatlari (bu korxonalarining oraliq iste'moli sifatida qaraladi).

8. Oraliq iste'mol, yakuniy iste'mol va yalpi jamg'arilishni shakllantirishda ishlatilishi mumkin bo'lgan ba'zi tovarlar va xizmatlarni baholashda yondashuvni farqlash uchun ekspert baholash o'tkaziladi.

Yengil avtomobillarni sotib olish. MHT – 2008 (9.60-band) tavsiyalariga muvofiq, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilish xarajatlari uning

ishlab chiqarish va shaxsiy maqsadlarda foydalanilishiga mutanosib ravishda uy xo'jaliklarining asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi va yakuniy iste'mol xarajatlari o'rtasida taqsimlanishi kerak. Shuning uchun ekspert baholash o'tkaziladi: sotib olingan avtomobillar qiymatining aksariyat qismi uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moliga, qolgan qismi uy xo'jaliklari asosiy kapitalining yalpi jamg'arilishiga tegishlidir.

Elektr energiyasi va boshqa turdagi yonilg'i mahsulotlari, shaxsiy transport vositalari va boshqalar uchun yoqilg'i-moylash materiallari. MHT – 2008 (9.59-band) tavsiyalariga muvofiq, bir turdagi tovarlar va xizmatlar (masalan elektr energiyasi yoki yoqilg'ining ba'zi turlari) ishlab chiqarish maqsadlarida va xuddi shunday yakuniy iste'mol uchun ham ishlatilishi mumkin. Yakuniy iste'mol xarajatlariga faqatgina uy xo'jaligining ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lmagan qismi tegishli bo'ladi, qolgan qismi uy xo'jaliklarining oraliq iste'moli sifatida qabul qilinadi.

Transport xizmatlari. Transport xizmatlari bo'yicha yakuniy iste'mol xarajatlarini baholashda xizmat safari bilan bog'liq transport xarajatlari (korxonaning oraliq iste'moliga kiradi) va uy xo'jaliklarining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq transport xarajatlari (uy xo'jaliklarining oraliq iste'moliga kiradi) chiqarib tashlanadi.

Mehmonxona xizmati. Xizmat safari bilan bog'liq mehmonxonalarda yashash xarajatlari korxonaning oraliq iste'moli hisoblanadi, shuningdek, ular uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlaridan chiqarib tashlanadi.

9. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlarini hisoblashda mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlar manbalaridan foydalaniladi: uy xo'jaliklari budjetlarini muntazam kuzatuv ma'lumotlari (bundan keyin – UXBK); chakana savdo aylanmasi va umumiy ovqatlanish to'g'risidagi ma'lumotlar; aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar; qishloq xo'jaligi statistikasi ma'lumotlari; sug'urta tashkilotlarining statistika hisobotlari ma'lumotlari; to'lov balansining "Tashriflar" moddasi bo'yicha ma'lumotlari va boshqalar.

10. UXBK MIITning tarkibiy qismlari bo'yicha batafsil ma'lumot beradi hamda moliyaviy vositachilik va sug'urta xizmatlaridan tashqari barcha zarur xarajatlar moddalarini o'z ichiga oladi. Ushbu manbaning ijobiy xususiyati shundaki, tovarlar va xizmatlarni sotib olish bo'yicha kuzatuvda ularning narxlari xaridorlarni sotib olish vaqtidagi narxlari bo'yicha qayd etiladi, bu esa MHTning ro'yxatga olish va baholash bo'yicha talablariga mos keladi.

Bundan tashqari, UXBK to'g'ridan-to'g'ri sotuvchilardan to'plangan savdo to'g'risidagi ma'lumotlarga qaraganda, mayda chakana savdogarlar va xizmat ko'rsatuvchilardan xaridlarni to'liqroq qamrab olish imkonini berishi mumkin, chunki xaridorlar sotuvchilarga qaraganda xarajatlarini kamroq yashiradi.

Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlarini hisoblash uchun ma'lumot manbai bo'lgan UXBK odatda ba'zi cheklovlarga ega:

- tanlanma hajmi odatda nisbatan kichik bo'lib, bu muayyan aholi guruhlariga tegishli xarajatlar moddalarining reprezentativligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

- kamdan-kam amalga oshiriladigan (uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni sotib olish kabi) xarajatlar yoki ijtimoiy jihatdan nozik hisoblangan (alkogol ichimliklar, tamaki mahsulotlari va boshqalarni sotib olishga) xarajatlar moddalari to'g'risidagi ma'lumotlarning ham ishonchlilik darajasi past;

- ayrim tovarlar va xizmatlardan ishlab chiqarish maqsadlarida ham, uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moli sifatida ham foydalanilishi mumkin va uyushmagan korxonalar egalari bo'lgan uy xo'jaliklari xaridlardan foydalanish maqsadlari to'g'risida alohida ma'lumot bermasliklari mumkin.

11. Chakana savdo statistikasi ma'lumotlari, ayniqsa chakana savdo kanallari orqali tarqatiladigan tovarlar qismi uchun va chakana savdo tashkiloti ixtisoslashgan bo'lsa, uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moli bo'yicha muhim axborot manbai hisoblanadi.

Ushbu ma'lumot manbaining kamchiliklari quyidagilardir:

- ba'zi do'konlarda juda ko'p turdagi mahsulotlar sotiladi va ulardan mahsulot turlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etish zarur bo'ladi;

- chakana savdo ma'lumotlariga uy xo'jaliklaridan tashqari boshqa iste'molchilar xaridi ham kiradi;

- uy xo'jaliklari mahsulotlarni bevosita ishlab chiqaruvchilar, ulgurji savdogarlar va dehqon xo'jaliklaridan sotib olishlari mumkin;

- chakana savdo kuzatuvlarida uyushmagan uy xo'jaliklari korxonalari tomonidan amalga oshiradigan kichik ko'lamli savdolar to'g'risidagi ma'lumotlar qamrovining to'liq emasligi;

- savdo korxonalari soliqlarni to'lamaslik uchun o'z tovar aylanmalarini sun'iy ravishda past baholashlari mumkin va bu yashirin iqtisodiyotning bir qismi hisoblanadi.

Shuning uchun, aksariyat hollarda chakana savdo statistikasi qo'shimcha manbalarga asoslangan holda tuzatishlar kiritishni talab etadi.

12. UXBKda reprezentativ bo'lmagan tovarlar bo'yicha xarajatlar chakana tovar aylanmasi statistikasi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi:

- alkogol mahsulotlari;

- tamaki mahsulotlari;

- transport vositalarini sotib olish.

13. Uy xo'jaliklarining pullik xizmatlarni sotib olish bo'yicha xarajatlari maishiy xizmatlar, sog'liqni saqlash, transport, axborot va aloqa, dam olish, sport va madaniyat, ta'lim, umumiy ovqatlanish korxonalari va mehmonxonalar xizmatlari, sug'urta, moliya tashkilotlari xizmatlariga xarajatlar asosida shakllanadi.

14. Uy xo'jaliklarining haqiqiy yakuniy iste'moli uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari va davlat boshqaruvi organlari yoki UXXKTdan olingan natura shaklidagi ijtimoiy transfertlardan tashkil topadi.

15. MHT-2008ga muvofiq, uy xo'jaliklarining xizmatlar ko'rsatishga qilgan xarajatlari bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (keyingi o'rinlarda – BO'MVX)ni o'z ichiga oladi. BO'MVXni institutsional sektorlar bo'yicha hisoblash iste'mol tarkiblari bo'yicha uni taqsimlash uchun kerakli ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

BO'MVX ishlab chiqarishi nomoliyaviy va moliyaviy korporatsiyalar, davlat boshqaruvi organlari, UXXKNT va o'z turar-joylarida yashaydigan hamda uyushmagan korxonalar mulk egalari hisoblangan uy xo'jaliklari sektorlarining oraliq iste'moliga tegishli bo'ladi.

Iste'molchi-uy xo'jaliklari uchun BO'MVX ishlab chiqarishi uy xo'jaliklari sektorining yakuniy iste'mol xarajatlariga tegishli bo'ladi. BO'MVX ishlab chiqarishini taqsimlash usullari Davlat statistika qo'mitasining 2019- yil 31- oktabrdagi 42-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Bilvosita o'lchanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari ishlab chiqarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da batafsil bayon etilgan.

BO'MVX ishlab chiqarishining yakuniy iste'molga tegishli qismi ishlab chiqarish usulida hisoblangan moliyaviy va sug'urta faoliyatining hisob-kitoblaridan aniqlanadi.

16. Uy xo'jaliklarining o'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlari iste'moli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) go'sht, sut, tuxum, don, non, mevalar, sabzavotlar va boshqalar kabi uy xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan, UXBK ma'lumotlari asosida aniqlanadigan mahsulotlar;

b) uy egalari tomonidan o'z iste'mollari uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlari.

17. MHT – 2008 (10.34-band)ga ko'ra, o'z uyida yashaydigan uy-joy egalari o'z iste'moli uchun yashash xizmatlarini ishlab chiqaruvchi uyushmagan korxonalar sifatida qaraladi. Xususiy uy-joy mulkdorlari tomonidan o'z iste'mollari uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarining qiymati o'z uyida yashash bo'yicha xizmatlarning shartli qiymati sifatida baholanadi va ishlab chiqarish hajmi foydalanuvchilar xarajatlari usulida hisoblanadi.

Foydalanuvchilarning xarajatlari usuli to'g'risidagi tushuntirishlar Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 29- avgustdagi 31-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Uy-joy egalari tomonidan o'z iste'moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ida batafsil keltirilgan.

18. Mehnat haqi sifatida olingan tovarlar va xizmatlarning qiymati ish beruvchilar tomonidan o'z yollanma ishchilariga mehnat haqi (natura shaklidagi daromad) hisobida berilgan tovarlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar to'g'risida ma'lumotlar jismoniy shaxslarga mehnat haqidan tashqari to'lovlar bo'yicha korxonalar va tashkilotlarning statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining "Moddiy manfaatlar ko'rinishidagi daromadlar" to'g'risidagi 376-moddasiga muvofiq).

19. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari faqat rezident uy xo'jaliklari uchun aniqlanadi. Shu sababli, uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari rezidentlarning chet eldagi tovarlar va xizmatlar xaridlari (turistik sayohatlar vaqtida va boshqalar)ni hisobga olishi va norezidentlarning mamlakat hududidagi shu kabi xaridlarini istisno qilishi kerak.

Ushbu ma'lumotlar to'lov balansi asosida "Tashriflar" moddasi bo'yicha import va eksport o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari asosan UXBK asosida shakllantirilganligi sababli, XVJ texnik ko'magi doirasida xalqaro ekspert tavsiyasi bo'yicha faqat rezidentlar tomonidan chet elda sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun tuzatishlar amalga oshiriladi hamda "Tashriflar" moddasi bo'yicha import qo'shiladi.

4-bob. Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari

20. Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari bu sektor institutsional birliklarining uy xo'jaliklariga bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan (bozor narxlaridan past) narxlarda taqdim etadigan iste'mol tovarlari va xizmatlariga ketgan xarajatlarini o'z ichiga oladi. Davlat muassasalarining xarajatlari davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

21. Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) davlat muassasalarining nobozor xizmatlar ishlab chiqarishi;
- b) Markaziy bankning nobozor ishlab chiqarishi;
- d) uy xo'jaliklariga bepul yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan narxlarda berish uchun bozor ishlab chiqaruvchilaridan sotib olingan iste'mol tovarlari va xizmatlari qiymati.

Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlarini hisoblash chizmasi 3-ilovada, uy xo'jaliklariga taqdim etish uchun bozor ishlab chiqaruvchilaridan tovarlar va xizmatlarni sotib olish xarajatlarining shakllanish chizmasi 4-ilovada keltirilgan.

22. Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari ikki asosiy guruhga bo'linadi:

- a) individual tovarlar va xizmatlarga ketgan xarajatlar;
- b) kollektiv xizmatlarga ketgan xarajatlar.

23. Individual tovarlar va xizmatlarga davlat boshqaruvi organlari xarajatlari sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari xarajatlarini o'z ichiga oladi va natura shaklidagi ijtimoiy transfert sifatida qaraladi.

24. Kollektiv xizmatlarga xarajatlar o'z ichiga davlat boshqaruvi, mudofaa, jamoat tartibi va xavfsizligi, iqtisodiyotni boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida faoliyat yuritadigan davlat

muassasalarining xarajatlarini, shuningdek, Markaziy bankning nobozor ishlab chiqarilishini oladi.

25. Davlat boshqaruvi organlari xarajatlarini baholash quyidagi institutsional birliklar guruhlari bo'yicha amalga oshiriladi:

- budjet muassasalari;
- davlat budjetidan tashqari jamg'armalari;
- davlat boshqaruvi organlari tomonidan nazorat qilinadigan va moliyalashtiriladigan nobozor notijorat tashkilotlar (keyingi o'rinlarda – NTT).

26. Budjet muassasalari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari hisoblanadi.

Davlat budjetidan tashqari jamg'armalar faoliyatini moliyalashtirish uchun joriy xarajatlarning tarkibiy qismlari ushbu jamg'armalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga muvofiq, alohida hisoblanadi. Ushbu xarajatlarga budjet muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan turli xil davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar kirmaydi.

NTTlar joriy xarajatlarining alohida tarkibiy qismlari to'g'risidagi statistika hisoboti ("Notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot" 1 notijorat shakli (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi)) ma'lumotlari ularning ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

27. Davlat boshqaruvi sektori (**O**)ning nobozor ishlab chiqarishni baholash ishlab chiqarishning joriy xarajatlari yig'indisi bo'yicha amalga oshiriladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$O = CE + IC + CFC,$$

bu yerda

CE – yollanma ishchilarning mehnat haqi;

IC – oraliq iste'mol;

CFC – asosiy kapital iste'moli.

28. Individual va kollektiv iste'mol uchun nobozor tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni taqsimlashda xalqaro "Davlat boshqaruvi organlari funksiyalarining tasniflagichi" (keyingi o'rinlarda – DBOFT) qo'llaniladi. Davlat boshqaruvi organlari sektorining nobozor ishlab chiqarishini hisoblash algoritmi 5-ilovada keltirilgan.

29. Asosiy kapital iste'moli (keyingi o'rinlarda – AKI) barcha turdagi asosiy kapitallar uchun ularning haqiqiy foydalanish muddati va joriy qayta tiklash qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Hozirgi kunda AKIni baholashda Xalqaro valyuta jamg'armasining milliy hisoblar bo'yicha texnik ko'magi doirasidagi ekspert tavsiyalariga muvofiq, davlat boshqaruvi sektori bo'yicha boshqa davlatlarda foydalaniladigan eskirishning qat'iy belgilangan foizi qo'llaniladi.

30. MHT – 2008 tavsiyalariga binoan, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar (keyingi o'rinlarda – ITI) intellektual mulk mahsulotlari toifasiga kiritiladi va ular egasiga iqtisodiy naf keltirmaydigan holatlardan tashqari (ular o'z ehtiyojlari

uchun ishlab chiqarilsa) barcha holatlarda aktiv hisoblanadi, ya'ni ular sarmoya sifatida kiritiladi. Shuning uchun ITI bo'yicha xarajatlar davlatning yakuniy iste'mol xarajatlariga kiritilmaydi va asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi deb qaraladi.

5-bob. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (UXXKNT)ning yakuniy iste'mol xarajatlari

31. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

a) birinchi navbatda o'z a'zolariga xizmat ko'rsatish uchun notijorat tashkilotlar; Bular kasbiy, ijodiy va boshqa uyushmalar, siyosiy partiyalar, diniy jamiyatlar, ko'ngilli sport jamiyatlari va boshqalardir. Bunday tashkilotlar asosan a'zolik badallari hisobidan moliyalashtiriladi.

b) uy xo'jaliklariga nobozor tovarlar va xizmatlarni yetkazib beradigan hamda asosan pul va natura shaklidagi xayriya mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan xayriya jamiyatlari va jamg'armalari;

d) asosan o'z ta'sischi korxonalariga xodimlariga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bo'linmalari. Bunday bo'linmalar ta'sischi korxonadan transfertlar shaklida mablag'lar oladigan notijorat tashkilotlar (idoraviy uy-joy, kasalxonalar, davolash va profilaktoriylar, klublar, stadionlar va boshqalar) sifatida qaraladi.

Shunday qilib, UXXKNT sektori institutsional bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning maqsadi foyda olish emas. Ushbu sektor a'zolik badallari, xayriyalar, subsidiyalar, iqtisodiyotning boshqa institutsional sektorlaridan olingan boshqa maqsadli mablag'lar, shuningdek, mulkdan daromadlar hisobiga faoliyat olib boradi.

32. UXXKNTlarning yakuniy iste'mol xarajatlari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$NPISH\ FC = NMO - P + ST,$$

bu yerda

NPISH FC – UXXKNTlarning yakuniy iste'mol xarajatlari;

NMO – UXXKNTlarning nobozor tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishi;

P – tovarlar va xizmatlarni bozor narxlarida sotishdan va iste'molchilar tomonidan xizmatlar narxining qisman qoplanishidan tushumlar;

ST – uy xo'jaliklariga o'tkazish uchun bozor ishlab chiqaruvchilaridan iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib olish xarajatlari.

33. Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan uy xo'jaliklariga taqdim etilgan tovarlar va xizmatlar hajmi nodavlat notijorat tashkilotlar uchun statistika hisoboti asosida aniqlanadi ("Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to'g'risida hisobot" 1-NNT shakli (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi)).

Korxona tomonidan to'lanadigan va uning xodimlariga taqdim etiladigan ijtimoiy-madaniy xizmatlarning hisob-kitoblari tijorat korxonalarining statistika

hisobotlari ma'lumotlari asosida ("Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot" 1 korxona (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi)) shakllanadi hamda ijtimoiy-madaniy sohaning (sanatoriylar, dam olish maskanlari, sog'liqni saqlash muassasalari, ta'lim, madaniyat) idoraviy obyektlarini joriy saqlash xarajatlari hajmi nomoliyaviy sektordan uy xo'jaliklari sektoriga taqdim qilingan joriy transfertlar sifatida aks ettiriladi.

34. Hisob-kitoblar xalqaro "Maqsadlar bo'yicha uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar xarajatlari tasniflagichi" (keyingi o'rinlarda – NTMT) bo'yicha amalga oshiriladi. Shartli ravishda UXXXKNTlar faqat individual tovarlar va xizmatlarni taqdim etadi deb qabul qilinadi.

6-bob. Yalpi jamg'arilish

35. Yalpi jamg'arilish asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi, moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini va sof qimmatbaho buyumlarni sotib olishni o'z ichiga oladi.

36. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi rezidentlar tomonidan asosiy kapital obyektlariga, kelajakda ulardan foydalanib, daromad olish maqsadida kiritilgan mablag'larni o'zida namoyon etadi.

Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- a) yangi asosiy fondlarni sotib olish;
- b) ilgari ishlatilgan asosiy vositalarni va qurilishi tugallanmagan obyektlarni sotib olish (chiqib ketganlarini chegirgan holda);
- d) asosiy poda mollari qiymatining o'sishi;
- e) asosiy fondlarni kapital ta'mirlashga qilingan xarajatlar;
- f) budjet ajratmalari hisobidan budjet tashkilotlari tomonidan asbob-uskunalar, uzoq foydalaniladigan predmetlar, axborot resurslari va axborot kutubxona markazlari uchun kitoblarni sotib olishga qilingan xarajatlar;
- g) kapital qurilish obyektlariga tegishli bo'lmagan geologiya-qidiruv ishlariga qilingan xarajatlar;
- h) dasturiy ta'minotni tuzish va sotib olishga qilingan xarajatlar;
- i) ilmiy tadqiqot va ishlalanmalarga xarajatlar;
- j) adabiyot va san'at asarlarining asl nusxalarini sotib olishga ketgan xarajatlar;
- k) noishlab chiqarish aktivlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni berish bilan bog'liq xarajatlar;
- l) asosiy kapitalning bepul kelib tushishi.

37. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi tarkibiga quyidagilar kirmaydi:

- a) uzoq muddat xizmat qilishiga qaramasdan, mayda asboblari, ish kiyimi, butlovchi qismlar, arzon narxdagi uskunalarini sotib olish (ular oraliq iste'mol tarkibiga kiritiladi);
- b) uy xo'jaliklari tomonidan o'z iste'mol ehtiyojlari uchun sotib olingan,

uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar;

d) hali to'lovi kelib tushmagan tugallanmagan qurilish va tugallanmagan kapital ta'mirlash (ular moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishiga kiritiladi);

38. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishini hisoblash uchun ma'lumot manbalari investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarning statistika kuzatuvlari ma'lumotlari hamda turar-joy va noturar joy obyektlarini qurish bo'yicha yakka tartibdagi quruvchilarning statistika kuzatuvlari natijalari hisoblanadi. Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi hisob-kitoblarning asosida MHT konsepsiyalariga muvofiqlashtirilgan "asosiy kapitalga investitsiyalar" ko'rsatkichi yotadi.

Uslubiy yondashuvlarning so'nggi o'zgarishlari natijasida amalga oshiriladigan hisob-kitobning batafsil tavsifi Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 30- yanvardagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Kapital bilan operatsiyalar hisobini shakllantirish bo'yicha vaqtinchalik uslubiy nizom"da keltirilgan.

39. Moddiy aylanma vositalar (MAV) zaxiralarining o'zgarishi ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar zaxiralarining o'zgarishini o'z ichiga oladi.

40. Zaxiralarning o'zgarishi korxonalarning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari bo'yicha davr oxiri va boshidagi zaxiralar qiymati o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblashda narxlar o'zgarishining ta'sirini yo'qotish maqsadida davr oxiri va boshidagi zaxiralarni hisobot davrining o'rtacha narxlarida baholashni ko'zda tutuvchi maxsus hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

41. Tayyor mahsulotlar zaxirasi va tugallanmagan ishlab chiqarishini qayta baholash uchun tegishli tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqaruvchilar narxleri indekslaridan foydalaniladi. Ishlab chiqarish zaxiralarini qayta baholashda "Resurslar va ishlatilish" jadvallari ma'lumotlari asosida turli xil zaxiralarning kelib chiqish tarmoqlari aniqlanadi va ularga tegishli ishlab chiqaruvchilar indeksleri tanlab olinadi. Qayta sotishga mo'ljallangan tovarlar iste'mol narxleri indeksi orqali qayta baholanadi.

Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash ketma-ketligi uslubiy nizomning 6-ilovasida keltirilgan.

Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini baholash bo'yicha batafsil yo'riqnomalar Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- sentabrdagi 33-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da keltirilgan.

42. Qimmatbaho buyumlar qimmatbaho metallar va toshlar, antiqa buyumlar, kolleksiyalar hamda boshqa tasviriy san'at asarlarini o'z ichiga oladi. Ular asosan ishlab chiqarish va iste'mol sifatida emas, balki jamg'arish vositasi sifatida nafaqat uy xo'jaliklari, balki notijorat tashkilotlar, davlat muassasalarida ham saqlanadi. Shu bilan birga bu qimmatbaho buyumlarning haqiqiy (umumiy

narx darajasiga nisbatan) qiymati vaqt o'tishi bilan kamaymasligi taxmin qilinadi.

7-bob. Tovarlar va xizmatlar sof eksporti

43. Sof eksport O'zbekistonning eksport-import operatsiyalarini qamrab oladi hamda tovarlar va xizmatlarning eksporti va importi saldosi sifatida aniqlanadi.

Tovarlar va xizmatlarning eksporti va importi "ko'rinadigan tovar"lar (moddiy qimmatliklar, to'lov vositasi sifatida ishlatilmaydigan nomonetar oltin va kumush, beg'araz yordam sifatida beriladigan tovarlar va boshqalar) va xizmatlardan tashkil topadi.

44. TBQ6ning hisobga olish va aniqlash tamoyillari deyarli to'liq MHT – 2008 bilan moslashtirilgan, bu esa tovarlar va xizmatlar eksporti qismida milliy hisoblarni shakllantirish uchun to'lov balansini ma'lumotlar manbai sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Tovarlar eksporti va importi mamlakat chegarasini kesib o'tadigan yoki rezident va norezident o'rtasida mulk huquqining o'zgarishini nazarda tutadigan tovarlar bo'yicha barcha operatsiyalardan tashkil topadi.

Xizmatlar eksporti va importi rezidentlar tomonidan norezidentlarga hamda norezidentlardan rezidentlarga ko'rsatiladigan barcha xizmat turlarini qamrab oladi va quyidagilarga bo'linadi:

- boshqa tomonlarga tegishli bo'lgan moddiy resurslarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar;
- boshqa toifalarga kiritilmagan ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- barcha turdagi transport xizmatlari;
- tashriflar (norezidentlarning O'zbekistonda ish va turizm uchun qilgan xarajatlari hamda rezidentlarning chet elda ish va turizm uchun qilgan xarajatlari);
- moliyaviy vositachilarning xizmatlari;
- xizmatlarning boshqa toifalari (qurilish, sug'urta, kompyuter va axborot xizmatlari, boshqa ishbilarmonlik xizmatlari, madaniyat va dam olish sohasida jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar, boshqa toifalarga kiritilmagan davlat tovarlari va xizmatlari).

45. To'lov balansidagi eksport va import to'g'risidagi ma'lumotlar dollar ko'rinishida ifodalanadi. Tovarlar eksporti va importi bo'yicha AQSH dollaridagi ma'lumotlar milliy valyutaga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra hisobot davridagi o'rtacha dollar kursi bo'yicha o'tkaziladi.

8-bob. Yakuniy iste'mol usulida YAIMni doimiy narxlarda baholash tamoyillari

46. Solishtirma va tarkibiy tahlil qilish uchun YAIM ko'rib chiqilayotgan davrning joriy narxlarida hisoblanadi. O'tgan davrga nisbatan ko'rsatkichlar

dinamikasini aniqlash uchun YAIM, shuningdek, undan foydalanishning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha bazis davrining solishtirma narxlarida hisoblab chiqiladi. Solishtirish uchun baza sifatida o'tgan yilning mos davridan foydalaniladi.

47. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari quyidagilar uchun alohida doimiy narxlarda hisoblanadi:

- iste'mol tovarlarini sotib olish va bozor xizmatlari (iste'molchilar xarajatlari) uchun to'lov;

- uy xo'jaliklari o'zlarining yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlar iste'moli (dehqon xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan mahsulotlar qiymati);

- natura shaklida olingan daromadlar hisobiga tovarlar iste'moli;

- xususiy uy-joy egalarining o'z iste'moli uchun ishlab chiqaradigan yashash xizmatlari qiymati.

48. Iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib olish xarajatlari MIITga muvofiq tovarlar va xizmatlar guruhlariga taqsimlanadi va doimiy narxlarda joriy narxlardagi qiymatni iste'mol narxlari indeksi yordamida deflyatsiya qilish orqali quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$HHFC_{const.} = \sum_{i=1}^n GS_i / I_i,$$

bu yerda

$HHFC_{const.}$ – uy xo'jaliklarining doimiy narxlardagi iste'mol tovarlari va xizmatlariga qilgan xarajatlari;

GS_i – uy xo'jaliklarining MIIT bo'yicha joriy narxlardagi i – guruhidagi iste'mol tovarlari va xizmatlarini sotib olish uchun qilgan xarajatlari;

I_i – joriy davrning o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, MIIT bo'yicha i – guruhdagi tovar va xizmatlar narxlari darajasining o'zgarishini aks ettiruvchi iste'molchilar narxlari indeksi.

49. Doimiy narxlardagi natura shaklida olingan daromadlar hisobiga tovarlar va xizmatlar iste'molini hisoblash iste'mol narxlarining jamlanma indeksi bo'yicha deflyatsiya qilish usuli orqali amalga oshiriladi.

50. Uy xo'jaliklarining doimiy narxlardagi o'z yakuniy iste'moli uchun ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlar qiymatini hisoblash dehqon xo'jaliklarining natura shaklidagi qishloq xo'jaliklari mahsulotlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlaridan foydalangan holda ekstrapolyatsiya qilish usuli orqali amalga oshiriladi.

51. Doimiy narxlardagi o'z xususiy uyida yashash xizmatlarini hisoblashda, xususiy uy-joy fondi maydonining o'zgarishi indeksi bo'yicha ekstrapolyatsiya qilish usulidan foydalangan holda quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$IR_{const.} = IR_{t-1} * I_h,$$

bu yerda

$IR_{const.}$ – doimiy narxlarda o‘z uyida yashash xizmatlari narxi;

IR_{t-1} – bazis davridagi joriy narxlarda o‘z uyida yashash xizmatlari narxi;

I_h – xususiy uy-joy fondi hajmining o‘zgarish indeksi.

52. Doimiy narxlarda maqsadlar bo‘yicha tasniflangan uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi davlat boshqaruvi organlari va notijorat tashkilotlarning yakuniy iste‘molga xarajatlarini hisoblashda mehnat statistikasi ma‘lumotlari bo‘yicha tegishli iqtisodiy faoliyat turida band bo‘lganlar sonining o‘zgarishi indeksi bo‘yicha ekstrapolyatsiya qilish usuli orqali amalga oshiriladi.

53. Asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi doimiy narxlarda asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha narx indeksi orqali deflyatsiya qilish usuli yordamida qayta baholanadi, bu narx indeksi qurilish-montaj ishlari, mashina va uskunalar, boshqa kapital ishlar va xarajatlarning jamlanma narx indeksi natijasida shakllantiriladi.

54. Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o‘zgarishini doimiy narxlarda hisoblash iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi orqali deflyatsiya qilish usuli yordamida amalga oshiriladi.

55. Eksport-import operatsiyalarini doimiy narxlarda hisoblash tovarlar va xizmatlar uchun alohida amalga oshiriladi.

Tovarlarning eksporti va importini doimiy narxlarda hisoblashda bojxona statistikasi ma‘lumotlariga ko‘ra natura shaklidagi eksport (import) qilinadigan tovarlar fizik hajmi indeksidan foydalangan holda ekstrapolyatsiya qilish usulidan foydalaniladi.

Xizmatlar eksportini qayta hisoblash uchun aralash yondashuv: transport xizmatlari eksporti fizik hajm indeksi bo‘yicha ekstrapolyatsiya qilish usuli (xalqaro yo‘lovchi tashish va yuk tashish); eksport qilinadigan xizmatlar uchun esa (transport xizmatlaridan tashqari) ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi yoki pullik xizmatlarning ayrim turlari bo‘yicha INI orqali deflyatsiya qilish usuli qo‘llaniladi.

Xizmatlar importini doimiy narxlarda baholash bazis davridagi ma‘lumotlarni dollar ko‘rinishida import qilingan xizmatlarning nominal o‘sishi bo‘yicha ekstrapolyatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

9-bob. Yakuniy qoidalar

56. Yakuniy iste‘mol elementlari bo‘yicha YAIM tarkibini shakllantirish yakuniy iste‘molga, yalpi jamg‘arilishga va sof eksportga qilingan xarajatlar nisbatini, shuningdek, yakuniy iste‘molga xarajatlarni moliyalashtirishda turli sektorlarning ishtiroki darajasini aniqlash imkonini beradi.

57. YAIMni yakuniy iste‘mol usulida xalqaro uslubiyat va tegishli tasniflagichlarga asoslangan holda dezagregatsiyalash O‘zbekistonning ilk marotaba Xalqaro taqqoslash dasturining navbatdagi sikllarida ishtirok etishi uchun kerakli ma‘lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

58. Rasmiy statistika ma‘lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo‘llash

maqsadida GSBPM milliy modelining ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.

59. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan axborotlar ro'yxati

1. Milliy hisoblar tizimi – 2008, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki, 2009- yil;
2. Davlat boshqaruvi sektori uchun MHT hisoblarini tuzish bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash usullari va ma'lumotlar manbalari // MDH statistika qo'mitasi, M., 2003- yil;
3. Uy xo'jaliklari sektori uchun MHT hisoblarini tuzish bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash usullari va ma'lumotlar manbalari // MDH statistika qo'mitasi, M., 2004- yil;
4. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori uchun MHT hisoblarini tuzish bo'yicha ko'rsatkichlarni hisoblash usullari va ma'lumotlar manbalari // MDH statistika qo'mitasi, M., 2003- yil;
5. Bashkatov B.I., Milliy hisobchilik, Moliya va statistika, M., 2002- yil.

YAIMni yakuniy iste'mol usulida
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga
1-ILOVA

Yakuniy iste'mol usulida YAIMni hisoblash chizmasi

Satrlar raqami	Ko'rsatkichlar nomi
1 = 2 + 8 + 11	Yalpi ichki mahsulot
2 = 3 + 4 + 7	Yakuniy iste'mol xarajatlari:
3	Uy xo'jaliklari
4 = 5 + 6	Davlat boshqaruvi organlari
5	individual tovarlar va xizmatlar uchun
6	kollektiv xizmatlar uchun
7	Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar
8 = 9 + 10	Yalpi jamg'arilish
9	Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi
10	Moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishi
11 = 12 - 13	Tovarlar va xizmatlarning sof eksporti:
12	Tovarlar va xizmatlar eksporti
13	Tovarlar va xizmatlar importi

YAIMni yakuniy iste'mol usulida
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi maqsadlari bo'yicha individual iste'mol
tasniflagichi, 2018**

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va alkogolsiz ichimliklar;
2. Alkogol ichimliklar, tamaki mahsulotlari va narkotik vositalar;
3. Kiyim-kechak va poyabzal;
4. Yashash xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari;
5. Uy-ro'zg'or anjomlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish;
6. Sog'liqni saqlash;
7. Transport;
8. Axborot va aloqa;
9. Dam olish, sport va madaniyat;
10. Ta'lim;
11. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari;
12. Sug'urta va moliyaviy xizmatlar;
13. Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya hamda turli tovarlar va xizmatlar;
14. Uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning individual iste'moliga xarajatlar (UXXKNT);
15. Davlat boshqaruvi organlarining individual iste'moliga xarajatlar.

YAIMni yakuniy iste'mol usulida
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga
3-ILOVA

Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol uchun xarajatlarini hisoblash

	Qator- lar kodi	Davlat boshqaruvi sektori tomonidan tovarlar va xizmatlarni nobozor ishlab chiqarish	Uy xo'jalikla- riga yetkazib berish uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olishga sarflanadigan xarajatlar	Yakuniy iste'molga xarajatlar
A	B	1	2	3=1+2
Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari – jami	01	3-jadval, 57 satr	4-jadval, 4 satr	
shu jumladan:				
- individual tovarlar va xizmatlar	02			
(11+14+17+20 satrlar)				
- kollektiv xizmatlar (01-02 satr)	03			
Davlat boshqaruvi organlari vazifalari				
tasniflagichining bo'limlari:				
01. Umumiy belgilangan davlat xizmatlari	04			
02. Mudofaa	05			
03. Jamoat tartibi va xavfsizlik	06			
04. Iqtisodiy masalalar	07			
05. Atrof-muhitni muhofaza qilish	08			
06. Uy-joy kommunal xizmatlari	09			
07. Sog'liqni saqlash	10			
shu jumladan:				
- individual tovarlar va xizmatlar	11			
- kollektiv xizmatlar	12			
08. Dam olish, madaniyat va din	13			
shu jumladan:				
- individual tovar va xizmatlar	14			
- kollektiv xizmatlar	15			
09. Ta'lim	16			
shu jumladan:				
- individual tovar va xizmatlar	17			
- jamoaviy xizmatlar	18			
10. Ijtimoiy himoya	19			
shu jumladan:				
- individual tovar va xizmatlar	20			
- jamoaviy xizmatlar	21			
Davlat boshqaruvi sektori tomonidan to'lanadigan natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar (2-satr)	22			
Davlat boshqaruvi sektorining amaldagi yakuniy iste'moli (3-satr)	23			

YAIMni yakuniy iste'mol usulida
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga
4-ILOVA

**Uy xo'jaliklariga yetkazib berish uchun davlat boshqaruvi sektorlarining
bozor ishlab chiqaruvchilaridan xarid qilingan
tovarlar va xizmatlarga xarajatlari**

Satr raqami	Ko'rsatkich nomi	Ma'lumotlar manbai
1.	Natura shaklidagi ijtimoiy ta'minot bo'yicha nafaqalar	Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasniflagich kodi 47.12.000
2.	Natura shaklidagi ijtimoiy yordam bo'yicha nafaqalar	Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy tasniflagich kodi 47.22.000
3.	Natura shaklida jismoniy shaxslarga ijtimoiy va xayriya yordami	1 notijorat shakli "Notijorat tashkilotlar faoliyati to'g'risidagi hisobot" statistika kuzatuv shakli
4.	Bozor ishlab chiqaruvchilaridan uy xo'jaliklariga yetkazib berish uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olishga sarflanadigan xarajatlar	1-satr + 2-satr + 3-satr

YAIMni yakuniy iste'mol usulida
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga
5-ILOVA

Davlat boshqaruvi sektorining nobozor ishlab chiqarish hisob-kitobi

sitr №	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi					Hisob-kitob algoritmi
		Guruh	Turkum	Modda	Element	
1	I guruh "Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar"	1	10 00 00 00			1-sitr = 2+6
2	Ish haqi	1	41	10	000.	2-sitr = 3-sitr
3	Pul shaklidagi ish haqi	1	41	11	000.	3-sitr = 4+5
4	Asosiy ish haqi	1	41	11	100	
5	Ish haqiga ustama va qo'shimchalar	1	41	11	200	
6	Uy-joy kommunal xizmatlar bo'yicha har oylik kompensatsiya to'lovlari	1	42	99	100	
7	II guruh "Ish haqiga qo'shimchalar"					
8	Ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar	2	41	20	000.	8-sitr = 9+12
9	Ijtimoiy ehtiyojlarga haqiqatda qilinadigan ajratmalar/badallar	2	41	21	000.	9-sitr = 10+11
10	yagona ijtimoiy to'lov	2	41	21	100	
11	ijtimoiy ehtiyojlarga boshqa ajratmalar/badallar	2	41	21	200	
12	Shartli hisoblanadigan ijtimoiy ehtiyojlarga ajratmalar/badallar	2	41	22	000.	
13	IV guruh. Boshqa xarajatlar					
14	TOVARLAR VA XIZMATLAR BO'YICHA XARAJATLAR	4	42	0	000.	14-sitr = 15+16+22+28+34+44
15	Xizmat safarlari xarajatlari	4	42	10	000.	
16	Kommunal xizmatlar	4	42	20	000.	16-sitr = 17+18+19+20+21
17	Elektrenergiyasi	4	42	21	000.	
18	Tabiiy gaz	4	42	22	000.	
19	Issiq suv va issiqlik energiyasi	4	42	23	000.	
20	Sovuq suv va oqova	4	42	24	000.	
21	Chiqindilarni tozalash, olib chiqib ketish bilan bog'liq xizmatlar hamda energetik va boshqa resurslar (benzin va boshqa YoMMLardan tashqari)ni sotib olish	4	42	25	000.	
22	Saqlab turish va joriy ta'mirlash	4	42	30	000.	22-sitr = 23+24+25+26+27
23	Yer	4	42	31	000.	
24	Bino	4	42	32	000.	
25	Inshoot	4	42	33	000.	
26	Mashinalar, jihozlar va texnika	4	42	34	000.	
27	Boshqa mashinalar, jihozlar, texnika va o'tkazgich qurilmalar	4	42	39	000.	
28	Ijara bo'yicha xarajatlar	4	42	40	000.	28-sitr = 30+31+32+33
29	Yer	4	42	41	000.	
30	Bino	4	42	42	000.	
31	Inshoot	4	42	43	000.	
32	Mashinalar, jihozlar va texnika	4	42	44	000.	
33	Ijara bo'yicha boshqa xarajatlar	4	42	49	000.	
34	Moddiy aylanma vositalari zaxiralarga xarajatlar	4	42	50	000.	34-sitr = 35-sitr

satr №	Xarajatlarning iqtisodiy tasnifi					Hisob-kitob algoritmi
		Guruh	Turkum	Modda	Element	
35	Boshqa moddiy aylanma vositalar	4	42	52	000.	35-satr = 36+37+38+39+40+41+42+43
36	Tovar-moddiy zaxiralar	4	42	52	100	
37	Kiyim-kechak, poyabzal va choyshab-g'iloqlar	4	42	52	200	
38	Oziq-ovqat mahsulotlari	4	42	52	300	
39	Dori-darmonlar, tibbiyotda foydalaniladigan vositalar, vaksinalar va bakteriologik preparatlar	4	42	52	400	
40	Yonilg'i va YoMM	4	42	52	500	
41	Ko'mir	4	42	52	600	
42	Qish-bahor mavsumiga g'amlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari	4	42	52	700	
43	Moddiy vositalarning boshqa zaxiralari	4	42	52	900	
44	Tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun boshqa xarajatlar	4	42	90	000.	44-satr = 45+46+49+50
45	Ta'lim xarajatlari	4	42	91	000.	
46	Telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari	4	42	92	000.	46-satr = 47+48
47	Telefon, telegraf va pochta xizmatlari	4	42	92	100	
48	Axborot va kommunikatsiya xizmatlari	4	42	92	200	
49	Obyektlarni qo'riqlash xizmatlari	4	42	93	000.	
50	Tovarlar va xizmatlar sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	4	42	99	000.	50-satr = 51 satr
51	Tovarlar va xizmatlar sotib olish bo'yicha boshqa xarajatlar	4	42	99	990	
52	Joriy	4	48	21	000.	52-satr = 53-54
53	Boshqa turli xarajatlar	4	48	21	100	
54	Birinchi sinf o'quvchilariga o'quv jihozlari sotib olish xarajatlari	4	48	21	130	
55	JAMI, joriy narxlarda					55-satr = 1+8+14+52
56	Asosiy kapitalning iste'moli, % da					
57	JAMI, joriy narxlarda					57-satr = (55 satr x 56 satr) /100 %

YAIMni yakuniy iste'mol usulida
hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga
6-ILOVA

**Moddiy aylanma vositalar zaxiralarini hisobot davrining o'rtacha
narxlarida qayta baholash**

Buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha zaxiralar qiymati			Zaxiralarni qayta baholash uchun indekslar			Hisobot davrining o'rtacha narxlaridagi zaxiralar qiymati		Hisobot davrining o'rtacha narxlarida zaxiralar qiymatining o'zgarishi ($S_n * I_{pq} / I_{pn} - S_0 * I_{pq} / I_{p0}$)
			Zaxiralarni saqlash davri uchun narxlarning o'rtacha indeksi		Hisobot davrida bazis davrga nisbatan narxlarning o'rtacha indeksi (I_{pq})			
Davr boshiga (S_0)	Davr oxiriga (S_n)	Zaxiralar qiymatining o'zgarishi ($S_n - S_0$)	Davr boshiga (I_{p0})	Davr oxiriga (I_{pn})		Davr boshiga ($S_0 * I_{pq} / I_{p0}$)	Davr oxiriga ($S_n * I_{pq} / I_{pn}$)	
1	2	3	4	5	6	7	8	9